

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XUDOYBERDIYEV JASUR LATIPOVICH

**AMERIKA MA’RIFATCHILIK DAVRI VA O‘ZBEK JADID
ADABIYOTIDA ADABIY-SIYOSIY MASALALAR TALQINI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Xudoyberdiyev Jasur Latipovich

Amerika ma’rifatchilik davri va o‘zbek jadid adabiyotida adabiy-siyosiy masalalar talqini.....3

Khudoyberdiyev Jasur Latipovich

Interpretation of Literary Politics in American Enlightenment and Uzbek Jadid Literature.....26

Худайбердиев Жасур Латипович

Интерпретация литературно-политических проблем в американской литературе просвещения и узбекской джадидской литературе51

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XUDOYBERDIYEV JASUR LATIPOVICH

**AMERIKA MA‘RIFATCHILIK DAVRI VA O‘ZBEK JADID
ADABIYOTIDA ADABIY-SIYOSIY MASALALAR TALQINI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2630 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Maxliyo Yunusovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Djalilova Xurshida Mirxolikovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21-uy. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, pedog.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida antik, oʻrta asrlar, Uygʻonish davri adabiyoti, klassitsizm, romantizm, sentimentalizm, naturalizm, tanqidiy realizm, urush davri adabiyoti, modernizm, postmodernizm kabi koʻplab adabiy davrlar va oqimlar shakllangan boʻlib, har biri oʻziga xos estetik tamoyillar va ijtimoiy-maʼnaviy vazifalari bilan ajralib turadi. Adabiy oqim va yoʻnalishlar oʻz zamonasining ijtimoiy hamda estetik talablariga javob tariqasida vujudga kelgan. Shu maʼnoda, maʼrifatchilik va jadid adabiyotini ham bir-biriga oʻxshash tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda yaratilganligi bilan izohlash mumkin. Adabiyotshunoslikda adabiyotning siyosatga, siyosatning adabiyotga murojaati uzoq tarixga ega. Lirik, epik va dramatik asarlarning janriy qonuniyatlari asosida siyosat turli zamon va makonlar doirasida badiiy ifoda etilgan. Siyosiy faoliyat (*Politics*) va siyosat (*policy*) tushunchalari mazmun jihatidan farqlanadi. Siyosiy faoliyat doirasida turli jarayonlar, xususan, siyosiy hodisalarni oʻrganish va tahlil qilish amalga oshiriladi. Siyosat esa yanada keng koʻlamli tushuncha boʻlib, u ijtimoiy va antropologik jihatlar bilan bogʻliq boʻlishi bilan birga, shaxslar hamda ijtimoiy guruhlarning mulkchilik, tabaqalanish va iqtisodiy oʻzgarishlarga munosabatini ham qamrab oladi. Shu bois, siyosiy masalalarni koʻrib chiquvchi adabiyot inson va jamiyat munosabatlarini tasvirlashga xizmat qiladi.

Dunyo adabiyotida “*adabiy siyosat*” (literary policy) atamasi falsafiy va estetik mohiyat kasb etadi. “Adabiy siyosat” Yevropada XVI asrdan avval shakllanib, XIX asrda yanada kuchga kirdi. Ushbu tushuncha ingliz adabiyotshunosligida “adabiyotda siyosat” (policy on literature) va “adabiyot siyosati” (literature policy) kabi atamalari bilan ifodalangan. Biroq XIX asrning oʻrtalaridan boshlab “adabiy siyosat” atamasi keng qoʻllanila boshladi. Fransuz adabiy asarlarida esa bu istiloh (politique litteraire) inglizlardan oldinroq paydo boʻlgani, ammo isteʼmolda kam ishlatilgani eʼtirof etiladi. “Adabiy siyosat” faqatgina muayyan davlatdagi siyosiy jarayonlarning tahlili bilan cheklanmay, balki adabiyot va siyosat oʻrtasidagi murakkab aloqadorlikni ham umumlashtiradi. Amerika adabiyotida mamlakatning madaniy hayoti, ijtimoiy taraqqiyoti hamda ilm-u maʼrifat, sanʼat va adabiyotning rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan yozuvchilar orasida Filip Moren Freno, Tomas Peyn va Fenimor Kuper alohida oʻrin tutadi. Ularning asarlarida siyosiy masalalar mahorat bilan badiiylashtirilgan.

Oʻzbek adabiyotshunosligida siyosiy masalalar talqini berilgan boʻlsa-da, *adabiy siyosat* atamasi ilmiy istiloh sifatida tadqiq etilmagan. Har bir davr ijodkorlari asarlarida davr tafsilotlari muntazam ravishda yoritilgan. Turkiston taraqqiyparvarlari, keyinroq esa jadidlar deya nom olgan maʼrifatparvar ziyolilarning milliy adabiyotga qoʻshgan hissalar katta boʻlib, koʻp jabhalardagi oʻzgarishlarga sababchi boʻlishdi. Zero, Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, gʻoyat ogʻir sharoitda ilm-maʼrifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat gʻoyalarini dadil koʻtarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur oʻrganishimiz lozim. Ularning ulugʻ maqsadlar yoʻlidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi

O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”¹. Mamlakatimizning xalqaro sahnada munosib mavqega ega bo‘lishi uchun ma’naviy muhitning barqarorligini mustahkamlash muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda “Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusidagi ma’ruzasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-279-son qarori va ushbu soha bo‘yicha qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida adabiyot va siyosatning o‘zaro munosabati uzoq tarixiy jarayonlar davomida turli ko‘rinishlarda shakllangan. Ushbu hodisa dastlab fransuz va ingliz adabiyotida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik nemis adabiyotida ham o‘z ifodasini topgan. Har bir davrda siyosiy masalalar talqini adabiy asarlarda aks ettirilgan.

Ingliz olimlaridan D.Filips, K.Shou, Amerika olimlaridan Sara E.L.Bowskill, Jeffri Mehlman, M.E.Tomas, E.Olvort, A.Xalid, fransuz olimlaridan Jak Ransier, Sara M.Korse², rus olimlaridan M.Baxtin, B.Groys, L.Krotova, N.Danilova,

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //https://president.uz/oz/lists/view/5774 [Murojaat sanasi: 26.09.2024]

² Allworth E. Uzbek literary politics. –The Hague: Mouton, 1964; Central Asian publishing and the rise of nationalism. –New York: New York Public Library, 1965; The nationality question in Soviet Central Asia. –New York: Praeger Publishers, 1973; The Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. A cultural history. Hoover Institution Press. 1990; Deborah Philips, Katy Shaw. Literary Politics The Politics of Literature and the Literature of Politics. – UK: Palgrave Macmillan, 2013. – P. 211.; Sarah E. L. Bowskill. The Politics of Literary Prestige. – New York: Bloomsbury academy, 2022. – P. 225.; Mehlman, Jeffrey. Genealogies of the text: literature, psychoanalysis, and politics. – USA: Cambridge University Press, 2006. – P. 275.; Edward Mack. Manufacturing modern Japanese literature: publishing, prizes, and the ascription of literary value. – Durham and London: Duke University Press, 2010. – P. 333.; Rancière J. The Politics of Literature. SubStance. – Baltimore, Maryland: The Johns Hopkins University Press, 2004, Vol. 33, No. 1, Issue 103. – P. 10-24.; Sarah M. Corse. Nationalism and

B.Olyashek³, o‘zbek olimlaridan O.Matkurbanova, R.Niyozmetova, Z.Mirzayeva⁴ kabilarning tadqiqotlarida adabiy siyosat muammolariga oid mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

Amerika ma’rifatchilik davrida muhim o‘rin tutgan Tomas Peyn, Filip Moren Freno va Fenimor Kuper ijodi hamda ularning mamlakatdagi ma’rifiy-siyosiy qarashlari bo‘yicha dunyo miqyosida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Devid F. Burg, Bernard Vinsent, Kristofer Xitchens, Xarvi J. Kay, Fred Lyuis Patti, Laura Vaksman, Jon P. Makvilyams, Ueyn Franklin⁵ kabi olimlarning ilmiy izlanishlari buning yaqqol dalilidir.

O‘zbek olimlaridan O.Sharafiddinov, N.Karimov, H.Boltaboyev, I.G‘aniyev, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo‘raqulov, Z.Adurashidov, S.To‘laganova, M.Umarova, Z.Mirzayeva, M.Sharafutdinova, Z.Qosimova⁶ kabilar jadidlardan

literature. The politics of culture in Canada and the United State. – Verginiya: Cambridge University Press, 2001. – P. 225.; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia//University of California Press, 1998; Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR.Cornell University Press, 2015; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia//University of California Press, 1998; “Central Asian Review”, “Central Asian Survey”, “Central Asian Journal” kabi chet el jurnallari.

³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества, Москва 1979; Гройс Б., Политика поэтики: сборник статей, Москва 2012; Кротова Л. Политическое воспитание художественной интеллигенции в современных условиях: дис... канд. ист. наук. – М., 1973; Данилова Н.К. Литература и литературная политика сегодня. //Art Logos (Искусство слова): научный журнал, 2023. №2 (23).; Оляшек Б. Художественная литература в пространстве политического спора //Acta Universitatis Lodziensis Folia Litteraria Rossica, 7, 2014 https://cejsh.icm.edu.pl/cejsh/element/bwmeta1.element.hdl_11089_9203?q=bwmeta1.element.hdl_11089_8894;5&qt=children-stateless.

⁴ Matkurbanova O. Adabiyotshunoslikda adabiy siyosatning yuzaga kelishi //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) Volume 2 | Issue 5 | May, 2022. – P. 256-261; Niyozmetova R. Adabiyotda ijtimoiy munosabatlar masalasi. Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti; IV an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 253-256.

⁵ Baldauf I. Educating the Poets and Fostering Uzbek Poetry of the 1910s to Early 1930s//Cahiers d’Asie centrale. 2015; David F. Burg. The American Revolution, Updated Edition. – New York: Infobase Publishing, 2007. – P. 481.; Bernard Vincent. The Transatlantic Republican Thomas Paine and the Age of Revolutions. – Amsterdam - New York, NY, 2005. – P. 187, Hitchen Ch. Rights of Man: Biography. – New York: Atlantic Monthly Press, 2001. – P. 163.; Harvey J. Kaye. Thomas Paine: Firebrand of the Revolution. – New York: Oxford University Press, 2000. – P. 161.; Fred Lewis Pattee. Poems of Philip Freneau: poet of the american revolution. – New York: The New Era Printing Company, 2001. – P. 380.; Waxman L. Uncommon revolutionary: A Story about Thomas Paine. – USA: Carolrhoda Books, Inc./Minneapolis, 2004. – P. 65.; McWilliams J.P. Political Justice in a Republic: James Fenimore Cooper's America. – USA: University of California Press, 1972. – P. 433.; Franklin W. James Fenimore Cooper: The Early Years. – USA: Yale University Press, 2005. – P. 761.; Fierman W. Uzbek feelings of ethnicity: a study of attitudes expressed in recent Uzbek literature//Cahiers du Monde Russe, 1981.

⁶ Болтабоев Х. Абдурауф Фитрат адабиётшунос. – Тошкент: Ёзувчи, 1996; Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 286.; Ганиев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 282.; Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. – Б. 423.; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 288.; Шарафиддинов О. Мустафо Чўкай, Чўлпон, Отажон Ҳошим. – Тошкент: Шарк, 1993. – Б. 137.; Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 245.; Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент, 2003.; Тўлаганова С. Иждокор шахс ва адабий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари. – Т: Фан, 2015.; Умарова М. Инглиз ва ўзбек адабиётига иждокор шахс ва қаҳрамон муаммоси (XIX-XX аср бошлари адабиёти мисолида). Филол. фан. доктори ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Мирзаева З.И. Ўзбек жадид адабиётининг Америкада ўрганилиши. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006; Шарафутдинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Автореф. дисс. док. филол. наук. – М., 2010; Касымова З.А. Концепция мира и человека сквозь призму традиций национальной и мировой литературы (на материале произведений А.Фитрата, А.Кадыри и А.Чулпана). Автореф. дисс. док. филол. наук. – Тошкент, 2011; Abdurashidov Z. Abdura’uf Fitrat in Istanbul / ANOR Central Asian Studies, Volume 22 (Edited by Ingeborg Baldauf), 2022. – P. 60.

Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy ijodi va ilmiy faoliyatini, jadidlarning mamlakat ma'rifatchiligiga siyosiy nuqtayi nazardan qo'shgan hissalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishgan.

Amerika va o'zbek ma'rifatparvarlari ijodiga bag'ishlangan alohida ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning asarlaridagi adabiy-siyosiy qarashlar qiyosiy tahlil asosida yaxlit monografik tadqiqot sifatida to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Amerika ma'rifatparvarlari va o'zbek jadid adabiyoti namoyandalari ijodida adabiy siyosatning ahamiyati, uning poetik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik hamda ilmiy-nazariy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon adabiyotida ma'rifatchilikning taraqqiyot bosqichlarini nazariy jihatdan asoslash hamda Amerika va o'zbek ma'rifatparvar ijodkorlarining adabiy-siyosiy jarayonga munosabatini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil etish;

Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat ijodi misolida siyosiy masalalarning badiiy ifodasi hamda ma'rifiy g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;

"shaxs va jamiyat" masalasining she'riyatdagi ifodasi hamda ma'rifatparvarlik g'oyalari talqinini Filip Moren Freno va Abdulhamid Cho'lpon she'rlari misolida ilmiy tahlil qilish;

Amerika va o'zbek adabiyotida ilk tarixiy roman janri mualliflari Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy nasrida istiqloq konsepsiyasining badiiy talqini va shakllanish mexanizmini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot obyektini sifatida Tomas Peynning "Sog'lom fikr" ("*Common Sense*"), "Amerika inqirozi" ("*The American Crisis*") risolalari, Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti" asarlari, Filip Moren Frenoning "Kolumbning ko'rinishi" ("*The vision of Columbus*"), "Amerika Ozodligi" ("*American Liberty*"), "Jasur amerikaliklar xotirasiga" ("*To the Memory of the Brave Americans*"), "Buyuk G'arbiy kanalda" ("*On the Great Western Canal*"), "Amerikaning yuksalayotgan shon-shuhrati" ("*The Rising Glory of America*"), Cho'lponning "Turkistonlik qardoshlarimizga", "Tinchlik istiqboli", "Umid", "Yurt qayg'usi" nomli she'rlari, Fenimor Kuperning "Josus" ("*The Spy*"), Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari tanlangan. Mazkur asarlarda Amerika ma'rifatchilik va o'zbek jadidchilik davri adabiy-siyosiy muammolari badiiy talqin etilgan.

Tadqiqotning predmetini Amerika ma'rifatchilik va o'zbek jadid adabiyotida adabiy siyosatning qiyosiy tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, ijtimoiy, kontekstual va psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ma'rifatchilik adabiyotining tadrijiy taraqqiyotiga ta'sir etgan tarixiy, ijtimoiy omillar, Amerika ma'rifatchiligi hamda o'zbek jadid adabiyotlarining komparativistik tadqiqi asosida ularning universal (ma'rifiy mavzu, umumbashariy g'oya va an'ana) va farqli (syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi, janriy qonuniyatlar, badiiy tasviriy vositalar) jihatlari aniqlangan;

Amerika va o'zbek ma'rifatparvarlari asarlarida adabiy siyosatning badiiy o'ziga xosligini izohlash orqali bu oqimlarni yuzaga keltirgan murakkab tarixiy sharoit manzaralari, roman, she'r va risolalarda badiiy ifoda etilgan, davr ehtiyoji tufayli dolzarblik kasb etgan ijtimoiy va ma'naviy muammolar, umumbashariy, axloqiy-ta'limiy g'oyalar tarixiy poetika mezonlari negizida dalillangan;

Tomas Peyn va Abdurauf Fitratning siyosiy hamda ma'rifiy masalalarni badiiy ifodalash uslubi, buyuk ijodkorlarning insonning o'zligini anglash, yurt ozodligiga erishish uchun ma'rifatdan vosita sifatida foydalanish mahorati, *ijodkor dunyoqarashi – badiiy asar – jamiyat munosabati* triadasi tahlili natijasida ikki adib asarlaridagi adabiy siyosatning nazariy asoslari takomillashtirilgan;

tenglik va adolatga asoslangan ma'rifatli jamiyat qurish g'oyasini ilgari surgan Filip Moren Freno va Abdulhamid Cho'lponning lirik, Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriyning epik asarlarida adabiy siyosatni falsafiy-badiiy idrok etish, tasvirlash mahoratidagi originallik hayotiy haqiqatga sodiqlik mezoni negizida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

G'arb va Sharq adabiyotshunosligida adabiy siyosatning shakllanishi, ifoda uslublari hamda an'analarning rivojlanishi bo'yicha nazariy xulosalar ilgari surilgan bo'lib, bu tamoyillar ushbu yo'nalishdagi asarlarni tahlil qilishda metodologik asos vazifasini bajargan;

adabiy siyosatning turli janrlarda aks ettirishning badiiy xususiyatlari Tomas Peyn, Abdurauf Fitrat, Filip Moren Freno, Abdulhamid Cho'lpon, Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlarning asarlari asosida tahlil qilingan;

G'arb va Sharq adabiyotshunosligida adabiy siyosatning o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish ushbu tushunchaning yanada chuqurroq anglanishiga, uning qo'llanish doirasini kengaytirishga hamda ularni batafsil o'rganishga zamin yaratgan. Shuningdek, bu jarayon Amerika adabiyoti, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik, adabiyot va badiiy ijod fanlari bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining takomillashtirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, nazariy fikr va xulosalarning qiyosiy-tipologik, kontekstual, biografik, psixoanalitik va psixologik tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, tadqiqot mavzusiga mos asarlarning tanlanishi, ishonchli ilmiy manbalar, nashrlar va lug'atlardan foydalanilishi, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilishi hamda tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar ma'rifatchilik davri ijodkorlarining adabiy siyosatga munosabati, adabiy siyosatning turli janrlarda ifodalanish shakllari, taraqqiyoti, talqini hamda uning Amerika va o'zbek adabiyotidagi tutgan o'rni,

zamon va makon ta'sirida yuzaga kelgan o'zgarishlari, adabiy siyosatning Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat, Filip Moren Freno va Abdulhamid Cho'lpon, Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlarning asarlarida namoyon bo'lishi bo'yicha ilmiy-nazariy masalalarni qiyosiy tahlil qilish va o'rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiy siyosat masalasini Amerika va o'zbek ijodkorlari asarlari misolida qiyosiy jihatdan tahlil qilishda muhim manba vazifasini bajara olishi, uning xulosalaridan jahon va o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi, xorijiy mamlakatlar adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda tarjima nazariyasi kabi fanlar va maxsus kurslarni o'qitishda qo'llanilishi bilan birga, o'quv qo'llanmalari, xrestomatiyalar, darsliklar, ilmiy to'plamlar va lug'atlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amerika ma'rifatchilik davri va o'zbek jadid adabiyotida adabiy-siyosiy masalalar talqinini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

ma'rifatchilik adabiyotining tadrijiy taraqqiyotiga ta'sir etgan tarixiy, ijtimoiy omillar, Amerika ma'rifatchiligi hamda o'zbek jadid adabiyotlarining komparativistik tadqiqi asosida ularning universal (ma'rifiy mavzu, umumbashariy g'oya va an'ana) va o'ziga xos (syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi, janriy qonuniyatlar, badiiy tasviriy vositalar) jihatlari aniqlanganiga oid nazariy xulosalardan Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti va London Vestminster universiteti mutaxassislari hamkorligida olib borilayotgan RCF2023-007 raqamli "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim dasturlari tarixi" mavzusidagi ilmiy loyihada foydalanilgan (Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetining 2024-yil 28-noyabrdagi RO/01-00660-son ma'lumotnomasi). Natijada amalga oshirilgan ishlar loyiha bo'yicha tayyorlangan resurslarning mazmun-mohiyatini boyitish imkoniyatini bergan;

Amerika va o'zbek ma'rifatparvarlari asarlarida adabiy siyosatning badiiy o'ziga xosligini izohlash orqali bu oqimlarni yuzaga keltirgan murakkab tarixiy sharoit manzaralari, roman, she'r va risolalarda badiiy ifoda etilgan, davr ehtiyoji tufayli dolzarblik kasb etgan ijtimoiy va ma'naviy muammolar, umumbashariy, axloqiy-ta'limiy g'oyalar tarixiy poetika mezonlari negizida dalillangani xususidagi nazariy mulohazalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023-2025-yillarda bajarilishi mo'ljallangan IL-27-4722022413 raqamli "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativistika" elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 04-04-1/850-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tashkil qilingan, doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan "Komparativistika" jurnalida "Amerika va o'zbek ma'rifatparvar ijodkorlarining adabiy-siyosiy jarayonga munosabati" nomli maqola chop etilgan;

Tomas Peyn va Abdurauf Fitratning siyosiy hamda ma'rifiy masalalarni badiiy ifodalash uslubi, buyuk ijodkorlarning insonning o'zligini anglash, yurt

ozodligiga erishish uchun ma'rifatdan vosita sifatida sifatida foydalanish mahorati, *ijodkor dunyoqarashi – badiiy asar – jamiyat munosabati* triadasi tahlili natijasida ikki adib asarlaridagi adabiy siyosatning nazariy asoslari takomillashtirilganiga oid xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan jadidlar faoliyatiga bag'ishlab tashkil qilingan adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 8-maydagi 01-03/218-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, shuningdek, Tomas Peyn va Abdurauf Fitratning badiiy mahorati bo'yicha bilimlarini oshirishga xizmat qilgan;

tenglik va adolatga asoslangan ma'rifatli jamiyat qurish g'oyasini ilgari surgan Filip Moren Freno va Abdulhamid Cho'lponning lirik, Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriyning epik asarlarida adabiy siyosatni falsafiy-badiiy idrok etish, tasvirlash mahoratidagi originallik hayotiy haqiqatga sodiqlik mezoni negizida isbotlangani borasidagi xulosalardan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi faoliyatida samarali foydalanilgan (O'ZR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining 2025-yil 8-maydagi 73-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh avlodni yurtimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash hamda siyosiy qatag'on qurbonlari bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini o'rganishlarida muhim manba vazifasini bajargan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Amerika va o'zbek adabiyotida ma'rifatchilik davri tamoyillari”** deb nomlanib, uning birinchi fasli *“Adabiyotshunoslikda “ma'rifat”, “ma'rifatparvarlik” va “ma'rifatchilik” tushunchalarining nazariy tahlili*”ga bag'ishlanadi. Adabiyotshunoslikda *“ma'rifatchilik”* va *“ma'rifatparvarlik”* tushunchalariga ko'p asrlar davomida bir hodisa sifatida yondashilib kelingan.

Bunga sabab ikki tushunchaning ham negizi “ma’rifat” soʻzidan olinganidir. “Ma’rifat” arabcha soʻz boʻlib, *u bilim, anglash va tanish* kabi maʼnolarni anglatadi⁷. Tor maʼnoda bu tushuncha maʼlumotli, savodli, maʼnaviy boy va bilimdon insonlarga nisbatan qoʻllaniladi. Kengroq maʼnoda esa jamiyatdagi odamlarning bilim darajasini oshirish, ularning madaniy rivojlanishiga koʻmaklashish va taʼlim-tarbiya berish orqali ilm ulashish jarayoni sifatida qaraladi.

Oʻzbek milliy ensiklopediyasida “ma’rifat” soʻzi “tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, maʼlumotlar majmuasini bildiradi. Ma’rifat ilm-u urfon maʼnosida ham ishlatilib, u “*madaniyat*”, “*ma’naviyat*” tushunchalari bilan bogʻliq,⁸ deya taʼriflanadi. Adabiyotshunoslikda keng qoʻllanilayotgan “ma’rifatchilik” va “ma’rifatparvarlik” tushunchalari ma’rifat atamasining asosiy mazmuniga tayanib, shakllangan ilmiy istilohlar hisoblanadi.

“Ma’rifatchilik” – XVIII asr Yevropa va Shimoliy Amerikasining ilgʻor, asosan, dunyoviy fikr yurituvchi ziyolilari hamda faylasuflari qarashlarini ifodalash uchun qoʻllanilgan atama. Ma’rifatparvarlar harakatlarining turli yoʻnalishiga, jumladan, fanga nisbatan qarashlarida ancha farqlar boʻlgani uchun ham ma’rifatchilikka aqidaparastlik sifatida qaramaslik kerak. Koʻpchilik ziyolilar hali ham anʼanaviy falsafiy qarashlarga ustunlik berishgan boʻlsa-da, ilm-fan – ma’rifatchilik madaniyati va tafakkurida asosiy oʻringa chiqdi⁹. Shu bois, XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ilm-fan va din oʻrtasidagi ziddiyat kuchayib borar, falsafada esa inson taqdiriga diniy yondashuvdan chekinilib, insonning oʻzligini anglash masalasi ilgari surilardi. XVIII asrning asosiy intellektual va madaniy harakatida ishlatilgan ushbu atama mavjudlikning muhim masalalarini hal qilishda insonning bilim va aqliga kuchli ishonchni ifodalaydi¹⁰. Olimlar ma’rifatchilik davrining boshlanishi va oxirining aniq vaqti haqida bir xil fikrda emaslar.

Ma’rifatparvarlik dastlab Fransiyada shakllanib, 1789-yilda boshlangan Fransuz inqilobi va absolyutizm inqirozi sharoitida rivojlangan. Ma’rifatchilar mavjud ijtimoiy tuzumni mukammal deb hisoblamagan holda, insonni gunohkor mavjudot sifatida tan olganlar.¹¹ Fransuz ma’rifatchiligining dastlabki namoyandalari sifatida Mari Fransua Arue Volter, Jan Melye va Sharl Lui de Monteskyo eʼtirof etilgan boʻlsa, XVIII asrning 1740-yillariga kelib, Deni Didro, Jan Jak Russo va Pol-Anri Golbax kabi mutafakkirlar ushbu gʻoyalarni yanada rivojlantirdilar. Ma’rifatparvarlik gʻoyalari nafaqat Yevropa, balki Shimoliy Amerikada ham keng tarqalgan va rivojlangan.

Ushbu davrda jamiyatdagi boshqa sohalar singari adabiyot ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi, yuksak marralarni zabt etdi. Ma’rifatparvarlik adabiyoti feodal tuzumga qarshi kurash olib borib, ijtimoiy va siyosiy islohotlar tarafdori boʻldi. Bu adabiyot XVII-XVIII asrlarda Shimoliy Amerika va Gʻarbiy Yevropada kuchli taʼsir oʻtkazgan gʻoyaviy harakatlarning mahsuli sifatida shakllandi. Ushbu

⁷ <https://oyina.uz/uz/teahouse/1942> [Murojaat sanasi: 17.03.2025]

⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти. – Б. 336.

⁹ William E. Burns. Science in the Enlightenment an Encyclopedia. – California: Santa Barbara, 2003. – P. 92.

¹⁰ Peter Hanns Reill. Encyclopedia of the enlightenment. – New York: y Book Builders Incorporated, 2004. – P. 179.

¹¹ <https://azkurs.org/ii-asosiy-qism-fransuz-marifatchiligi-tarixi-va-paydo-bolishi.html?page=2> [Murojaat sanasi: 19.05.2024].

davrda adolat, erkinlik va tenglik kabi tamoyillarni himoya qilgan mutafakkirlar va yozuvchilar, bu tushunchalarni insonning tabiiy huquqlari sifatida qadrladilar¹². Ma’rifatchilik mafkurasi ko‘plab Yevropa mamlakatlarida milliy ong rivojiga kuchli turtki berdi. Bu jarayon, ayniqsa, Amerikada yaqqol namoyon bo‘ldi¹³. Ma’rifatparvar mutafakkir va yozuvchilar adolat, erkinlik va tenglik g‘oyalari insonning tabiiy huquqlari sifatida sodiq edilar.

Mazkur bobning ikkinchi fasli “*Amerika ma’rifatchiligi va o‘zbek jadid adabiyotining rivojlanish bosqichlari*” deb nomlanib, ushbu faslda ikki mamlakatda ma’rifatchilik davrining shakllanishi, asosiy g‘oyalari, yetakchi namoyandalari va adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri qiyosiy tahlil qilinib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan.

XVIII asr oxirida mustamlakachilar o‘zlarini amerikaliklar deb atay boshladilar¹⁴. Aslida, bu davrda mustamlakalar o‘rtasidagi adabiy markazlar o‘zaro aloqaga kirishib, mustaqillik va birlashuv g‘oyalari asosida yagona milliy adabiyotning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayon adabiy ijodkorlar orasida yangi fikr va g‘oyalar almashinuvini ta’minlab, bir butun xalqning tarixiy va madaniy merosini ifodalovchi asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi.

Fransuz, nemis va ingliz ma’rifatchiligi o‘zaro qiyoslanganda, Amerika ma’rifatchiligining tadqiqi nisbatan e’tibordan chetda qolgan bo‘lib, u ko‘pincha aniq va izchil intellektual oqim sifatida ko‘rilmaydi. Buning sababini, birinchi navbatda, Amerika mustamlaka maqomida bo‘lganligi hamda Angliya Yevropa bilan intellektual, siyosiy va madaniy aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘lash mumkin¹⁵. Amerika ma’rifatparvarlik adabiyotining ko‘plab asarlari hukumat va uning tamoyillarini o‘rganishga, ayniqsa, siyosiy tizim va uning asosiy prinsiplari haqida fikr yuritishga qaratilgan edi. Bu davrda yaratilgan asarlar nafaqat yangi siyosiy tuzilmalarni shakllantirishga yordam berdi, balki inson huquqlari, erkinlik va adolatni ta’minlashga qaratilgan g‘oyalarni rivojlantirdi.

Har qanday adabiyot o‘z o‘rnini belgilash, qiyosan o‘rganish, o‘sha millatning madaniyatini, adabiyotini jahondagi boshqa millatning adabiyoti bilan qiyoslashda namoyon bo‘ladi. Qiyoslash orqali o‘sha millat yoki mamlakat adabiyotining o‘ziga xosligi, milliyligi, farqi va mushtarakligi zamirida umuminsoniy qadriyatlar mujassamligi namoyon bo‘ladi¹⁶. Yevropadagi ma’rifatchilik davri bilan Turkiston jadidchilik harakatlari o‘rtasida ham aynan ana shunday o‘xshash jihatlar kuzatiladi.

Markaziy Osiyoda ma’rifatchilik g‘oyalari IX-XV asrlarda targ‘ib etilgan bo‘lsa-da, keyinchalik siyosiy tanazzul, parchalanish va iqtisodiy turg‘unlikni boshidan kechirdi. Adabiyotshunos Sh.Rizayevning e’tiroficha, ma’rifatparvarlik g‘oyasi tasavvufning muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, XIV-XV asrlarda nazariy va badiiy jihatdan har tomonlama keng talqin etildi¹⁷. XIX asrda Markaziy Osiyo

¹² Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 164.

¹³ Vanspankeren K. Outlines of American literature. United States Department of State, 1994. – P. 16.

¹⁴ Семенова Е., Ростова М. Литература США. – Красноярск, Лесосибирск, 2016. – С. 11.

¹⁵ American Enlightenment Thought - <https://iep.utm.edu/american-enlightenment-thought/> [Murojaat sanasi: 17.03.2025]

¹⁶ Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. –Т.: Академия, 2004. – Б. 4.

¹⁷ Ризаев Ш. Маърифатпарварликдан маърифатчиликкача // Тафаккур. 1995. 1-сон. – Б. 74.

mamlakatlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. G'arb dunyosi yangi tartiblarni o'rnatib, ko'plab davlatlarni sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga va xom-ashyo yetkazuvchilarga ajratdi."¹⁸ Bu jarayon o'zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy sharoitlar yaratdi, mahalliy iqtisodiyotlar mustamlaka tizimiga bog'lanib qolgan edi.

XIX asrda Turkiston muhim va ahamiyatli davrni o'z boshidan kechirdi. Jadid ma'rifatparvarlik harakati aynan shu davrda maydonga keldi. Jadid ma'rifatparvarlari bu davrda yaratilgan matbuot, maorif, san'at, maktab va adabiyotga yangi islohotlarni olib kirdilar. Bunday jihatlar xalq ma'rifati va madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jadid ma'rifatparvarlari orasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ishoqxon Ibrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi siymolarni e'tirof etish lozim. Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan¹⁹. Har qanday yangilik, ya'ni islohotni ma'rifatdan boshlash kerakligiga jiddiy ahamiyat qaratilib, jadidlar boshchiligida yangi maktablar, yangi adabiyot, yangi matbuot yaratildi, yangi teatrlar ochildi.

Turkiston jadidlarining o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri – Yevropa madaniyati, adabiyoti bilan tanishish, jahonning boshqa davlat va xalqlari bilan muloqot o'rnatishdan iborat edi. Keyinchalik Turkiya, Rossiya, Yevropa mamlakatlaridagi o'quv yurtlarida musulmon aholi vakillarining tahsil olishi natijasida Yevropa ma'rifatchilik g'oyalari Turkistonga ham kirib kela boshladi va jadidchilik g'oyalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab jadidlarimiz dunyoqarashini kengaytirish, jahon mamlakatlari hayoti bilan tanishish maqsadida Fransiya, Germaniya, Gollandiya kabi Yevropa davlatlariga safar qilishgan²⁰. Ularning bu sayohatlari Yevropa madaniyati va ma'rifatining ularga muayyan darajada ta'sir ko'rsatganini yaqqol tasdiqlaydi.

Ma'rifatchilik davri – Amerika va Turkiston madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar asri bo'ldi. Bu davrga kelib Amerika mustaqillikni qo'lga kiritib, Amerika Qo'shma Shtatlari degan yangi nom oldi. Turkiston xalqi ham shunday urinishni amalga oshirdi, lekin mustaqillikni qo'lga kiritish olmadi. Ammo har sohada yuksak o'zgarishlar sodir bo'lib, jadidlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga jiddiy turtki bo'ldi.

Birinchi bobning *“Amerika va o'zbek ma'rifatparvar ijodkorlarining adabiy-siyosiy jarayonga munosabati”* deb nomlangan uchinchi faslida adabiyotning siyosiy jarayonlarga munosabati va ularni badiiy obrazlar orqali aks ettirishdagi o'rni tahlil qilinadi. “Adabiy siyosat” – adabiyotning ijtimoiy-siyosiy muhitga ta'sirini anglatib, ijtimoiy hayot tasvirini badiiy ifodalash, g'oyalarini targ'ib va tashviq etishda, adabiyotdan vosita sifatida foydalanish nazarda tutiladi.

¹⁸ Прилуцкий Е.А. Запад и Восток в философских и теоретических концепциях джадидов/ Жаидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараккиёт учун кураш. Даврий тўплам № 1. – Т.: Университет, 1999. – Б. 199.

¹⁹ Жаид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2016. – Б.7.

²⁰ Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. –Т.: Академия, 2004. – Б. 10.

Shuningdek, ijodkorlarning asarlari orqali ijtimoiy adolat, erkinlik, ilm-ma'rifat va milliy uyg'onish g'oyalari targ'ib etishdagi roli yoritiladi.

Adabiyotda siyosiy masalalarning talqini uzoq tarixga ega bo'lib, miflarga borib, taqaladi. Chunki har bir davr adabiyotida realistik qarash, voqealar silsilasiga tanqidiy munosabat, zamon bilan hamohang masalalar talqini mavjud. Adabiyot va siyosat o'rtasidagi munosabatni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki asosiy jihat sifatida ko'rib chiqish mumkin. Estetik asarlarning yaratilish jarayonida siyosiy voqealarning ta'siri muhim omillardan biri bo'lib, ayrim tahlillarda siyosatning adabiyotga ta'siri, ya'ni umumiy muhit va siyosiy vaziyatning badiiy asarning shakllanishiga bog'liqligi aniq kuzatiladi. Adabiyot ilmi yaratilgandan buyon asarlarda siyosiy masalalar talqinlari, adabiyot bilan siyosat o'rtasidagi munosabatlar mavjud²¹. Lekin bu jarayon har bir davrda turli jihatdan o'z aksini topgan. Ikki tomonlama jarayonni tashkil qilgan adabiyot hamda siyosat bir-biriga doimo ta'sir qiladi va biri ikkinchisini to'ldiradi²². Adabiy siyosatning kelib chiqishi qadimgi davrlarga to'g'ri kelsa-da, XVI asrning oxirida ushbu masala adabiy muammo sifatida o'rganila boshlandi. Adabiy siyosat tushunchasi tarixiy jarayonlarga bog'liq holda o'zgarib borgan va keng ma'noga ega. Uning asosida siyosiy kuchlar, xususan, davlat boshqaruvining manfaatlarini samarali yo'naltirish yotadi. Siyosiy hokimiyat esa adabiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida doimo muhim ahamiyat kasb etgan.

19-asr oxiri va 20-asr boshlari adabiyoti bejiz Milliy uyg'onish davri adabiyoti tarzida nomlanmagan. Aynan shu davrda mamlakatning taraqqiy etishi, ma'naviyat va ma'rifatning yuksalishi hamda millat erkinligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Turkistonning Ma'rifatchilik yoki Milliy uyg'onish deb nom olgan ushbu davrida yozuvchi va shoirlar, siyosiy arboblardan hamda ma'rifatparvar olimlar milliy madaniyat va zamonaviy jamiyat san'ati rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar.

Mamlakatda 1789-yilda yaratilgan Konstitutsiya ham aynan Amerika adabiyotiga asos solgan arboblardan tomonidan yozilgan, ular 1775-1783-yillarda sodir bo'lgan inqilobga rahbarlik qilgan XVIII asrning eng mashhur adiblari edilar. Bu yozuvchilarning ko'plari haqiqiy faylasuf bo'lib, ular ijodida siyosiy risolalar muhim ahamiyat kasb etgan²³. Puritanlar insonni tabiatan gunohkor va muvaffaqiyatsiz hisoblagan bo'lsa, ma'rifatparvar mutafakkirlar insonning o'zini o'zi takomillashtirish imkoniyatiga egaligiga ishonishgan. Ular adolat va erkinlik tamoyillariga asoslangan farovon jamiyat qurishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Ma'rifatchilik davrining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida Benjamin Franklin alohida ajralib turadi, chunki uning asarlarida Amerika ma'rifatchiligining ilg'or g'oyalari yaqqol aks etgan.

²¹ Blaiha M. Politics and Literature: English Literary Work as a Model. International Journal of Social Science and Economics Invention, 2019, 5 (01). <https://doi.org/10.23958/ijssci/vol05-i01/92>. [Murojaat sanasi: 17.03.2025].

²² Fekete J. Literature and Politics/Literary Politics. – Library.dal.ca. <https://dalspace.library.dal.ca/items/1063ef3c-1256-40d6-a8d7-405267de5f2a> [Murojaat sanasi: 17.03.2025].

²³ Benjamin Franklin, whom the Scottish philosopher David Hume called America's "first great man of letters," embodied the Enlightenment ideal of humane rationality//Peter B.High. An outline of American literature. – New York: Longman Inc, 2000. – P. 15.

Benjamin Franklin – yozuvchi, noshir, filantrop, matbaatchi, diplomat, o‘z davrining hurmatga sazovar va eng mashhur arboblardan edi. U aristokratik davrda kambag‘al oilada tug‘ilgan bo‘lishiga qaramasdan doim kambag‘alligini faxr bilan eslagan demokrat, birinchi o‘zini kashf qilgan, ko‘pchilikni lol qoldirgan amerikalik olim edi. Shotlandiyalik faylasuf Devid Hyum Benjamin Franklinni “birinchi buyuk adabiyot vakili” deb atagan²⁴. 1732-yildan 1758-yilgacha yilnoma jurnal bo‘lmish “Qashshoq Richard almanaxi”ni chop etdi. Ushbu yilnoma mustamlaka Amerikada juda mashhur yilnoma bo‘lib, mavsumiy ob-havo ma‘lumotlari, amaliy maslahatlar, jumboqlar va boshqa topishmoqli o‘yinlardan iborat. Ushbu yilnoma so‘z o‘yinlarining keng qo‘llanilishi bilan ham mashhur bo‘lgan va undagi ba‘zi ibratli jumlar hozirgi Amerika xalq tilida ham saqlanib qolgan. Shuningdek, Tomas Jefferson, Djeym Medison, Jon Adams, Tomas Peyn kabi ma‘rifatparvarlar Amerika mustaqilligiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar.

Ayni shunday fenomen XIX asr Turkistonida ham vujudga keldi. Jadidlarning ma‘rifiy faoliyati nafaqat yosh avlodga ta‘lim berish, darsliklar yaratish, balki madaniy hayotda ham faol ishtirok etish, teatrlar uchun asarlar yaratish, davriy matbuotda maqolalar e‘lon qilish, bir so‘z bilan aytganda, adabiy-publitsistik g‘oyalarni keng doirada targ‘ib qilish, eskirgan qarash va odatlarni tanqid ostiga olishdan iborat edi. Bunga misol qilib, Behbudiyning “Padarkush” dramasi olish mumkin. Drama Turkistonning barcha teatr sahnalarida qo‘yilib, katta muvaffaqiyatga erishdi. Jadid adabiyotida istiqloq g‘oyalarini targ‘ib qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa ko‘plab fidoyi adiblar yaratgan adabiy-ilmiy meros salmoqli mavqega ega.

Amerika ma‘rifatchilari va o‘zbek jadid adiblarining oldiga qo‘ygan maqsadlari ko‘plab jihatlari bilan mushtarak bo‘lib, har ikkala jamiyat ijodkorlari milliy an‘ana, madaniyat va qadriyatlarni targ‘ib qilish, mustamlakachilik siyosatini tugatish, ozodlik g‘oyalarini ilgari surish hamda xalqni ma‘rifatli qilish yo‘lida fidokorona harakat qildilar. Ular uchun adabiyot nafaqat badiiy ijod, balki ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurash maydoni ham edi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Amerika va o‘zbek ma‘rifatparvarlarining adabiy-siyosiy qarashlari tendensiyasi”** deb nomlanib, birinchi faslda *Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat asarlarida siyosiy muammolarning badiiy talqini* tahlilga tortilgan. Har bir davrda milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan millat fidoyilari ko‘p bo‘lgan. Mustaqillik uchun kurashib, xalqni tenglik, ozodlikka chorlagan, shu yo‘lda jonini fido qilgan o‘zbek taraqqiyparvarlari – jadidlarning o‘rni beqiyos. Ular jamiyatning haddan ziyod taraqqiyotdan orqada qolganligi, madaniy qoloqlikni teran anglab, davlat tuzumi va boshqaruvini isloh etishni, xalqni savodxon, ma‘rifatli qilishni mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘lishning istiqbol yo‘li deb bildilar²⁵. Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat ham shu oliy maqsadni ustuvor bilgan adiblar edi.

²⁴ Kathryn Vanspankeren. *Outlines of American literature*. United States Department of State, 1994. – P. 16.

²⁵ Абдурауф Фитрат давлат мустақиллиги тўғрисида //Жабрдийда ёзувчилар адабий мероси мустақиллик хизматида: илмий мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 2013. – Б. 48.

AQSh tarixi va adabiyotiga nazar solinsa, “AQShning cho‘qintirgan otasi” nomini olgan Tomas Peyn (1737-1809)ning o‘rnini alohida ta’kidlash kerak. Peyn Amerika ma’rifatparvarlarining demokratik harakatida o‘ziga xos unikal faolligi bilan alohida ajralib turgan anglo-amerikalik adib, yozuvchi, shoir, siyosiy arbob, faylasuf, olim, publitsistdir. Tomas Peyn siyosiy ishlar bilan 37 yoshida shug‘ullana boshladi. Uning separatistik his-tuyg‘ulari qo‘llab-quvvatlangan “Sog‘lom fikr” (1776) va “Amerika inqirozi”(1776-1783) nomlaridagi ikki asari nashr etilganidan so‘ng Amerika inqilobining faxriysiga aylandi.

Amerikalik adabiyotshunoslar Tomas Peyn ijodini atroflicha o‘rganib, uning asarlari ensiklopedik xususiyatga egaligini ta’kidlaydilar. Xususan, “Sog‘lom fikr” ko‘plab olimlar tomonidan adabiy asar sifatida tan olingan. AQShdagi Kolumbiya universitetining adabiyot va tanqid bo‘yicha professori Robert A. Ferguson “*The Commonalities of Common Sense*” (“Sog‘lom fikrdagi umumiyliklar”) maqolasida ushbu asarni batafsil tahlil qilib, uning adabiy ahamiyatini e’tirof etadi²⁶. Tomas Peynning “Sog‘lom fikr”, “Inson huquqlari” kabi asarlari tarixchilar, siyosatshunoslar va faylasuflar uchun uning Amerika inqilobidagi o‘rnini tahlil qilish hamda siyosiy nazariyaga qo‘shgan hissasini baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu asarlar adabiyot va siyosat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Dalaver universitetining ingliz tili va adabiyotshunosligi bo‘yicha professori Edward J. Larkin Tomas Peyn ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq qiladi. U “Tomas Peyn va inqilob adabiyoti” (“*Thomas Paine and the Literature of Revolution*”)²⁷ nomli kitobida adib asarlarini atroflicha tahlil etib, ularni janriy xususiyatlarini izohlaydi. Mazkur kitob Peynning adabiyot vakili sifatida tutgan o‘rnini, ayniqsa, nazariyotchi sifatidagi ahamiyatini yana bir bor ta’kidlab, uning matnlaridan aniq misollar keltiradi. Shu bois Peynni XVIII asrning asosiy adabiy va siyosiy nazariyalarini shakllantirgan muallif sifatida e’tirof etishadi.

Abdurauf Fitrat dramaturg, adib, pedagog bo‘lishi bilan bir qatorda kuchli siyosat arbobi ham edi. U mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarni yaxshi tushunardi, shu sababli jamiyat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan kuchlar haqida o‘ylay boshlaydi. Fitratning siyosiy qarashlari avj olishiga ham yuqoridagi jarayonlar turtki bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy faoliyatining qizg‘in davri 20-yillarning birinchi yarmigacha davom etdi²⁸. 1924-yildan keyin biz Fitratni siyosat maydonida ochiq ko‘rmasak ham, ilmiy ishlarining tub-tubida siyosiy bir maqsad, ya’ni millat manfaati yotganiga guvoh bo‘lamiz²⁹. Fitrat milliy adabiyot rivojiga beqiyos hissa qo‘shish bilan birga siyosiy jarayonlarning ham yetakchi vakili bo‘lgan.

XVIII asrning boshqa ma’rifatparvarlari singari Peyn adabiy-siyosiy faoliyatining diqqat markazi jamiyat va davlat muammosi, ularning kelib chiqishi, vazifalari hamda munosabatlariga qaratildi. Adibning ta’kidlashicha, Amerikada

²⁶ Ferguson, Robert A. The Commonalities of Common Sense. *The William and Mary Quarterly*, vol. 57, no. 3, 2000, pp. 465–504. *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/2674263> [Murojaat sanasi: 04.01.2025].

²⁷ Larkin E. *Thomas Paine and the Literature of Revolution*. Cambridge University Press, 2005. – P. 24-25.

²⁸ Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Т.: Bookmany Print, 2023. – Б. 23.

²⁹ Ғаниев И. Фитрат ва фитратшunosлик. – Т.: Фан, 2023. – Б. 27.

feodal institutlarini saqlab qolishga urinayotgan Amerika mustamlakalarining inqilobiy yo‘l bilan yarim feodal Angliyadan ozod etilishi va Yevropada feodal tuzumining inqirozi avj olgan sharoitda yangi ijtimoiy tuzum qanday bo‘lishi noma‘lum edi. Xalq ehtiyojlarini jamiyat, hukumatni esa yovuzlik zabt etardi, xalqni mehnat birlashtirgani uchun bu ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Yomonliklarga esa chek qo‘yiladi. Biri aloqani rag‘batlantiradi, ikkinchisi farqlarni keltirib chiqaradi³⁰. Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat asarlari jamiyatni uyg‘otishga, milliy ong va mustaqil tafakkurni shakllantirishga xizmat qildi. Ular ilm-ma‘rifat orqali taraqqiyotga erishish g‘oyasini ilgari surib, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga dadil munosabat bildirdilar. Taraqqiyparvarlar ijtimoiy muammolarga yechim izlab, najot ilmda deya e‘tirof etishib, maorifni isloh qilish yo‘lida jadal harakatlanishdi. Ular yaratgan badiiy asarlar ma‘naviy zavq berishdan ko‘ra ko‘proq tashviqiy xarakterga ega edi. Jadidlar anglab yetgan oliy haqiqat ularning badiiy asarlarida mardonavor aks ettirildi, hatto siyosiy muammolarning oshkora ifodasi boshlariga o‘lim ko‘lankasini solsa-da, ma‘rifatparvarlar xalq va yurt oldidagi muqaddas vazifalarini chin farzandlik, odamiylik va ijodkorlik nuqtayi nazardan ado etishdi.

1-jadval

Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat asarlarida siyosiy muammolarning badiiy talqini

Tomas Peyn	Umumiy jihatlar	Abdurauf Fitrat
“Sog‘lom fikr”, “Inson huquqlari”, “Agrar adolat” asarlarida mustaqillik, tenglik, ijtimoiy adolat g‘oyalari ilgari surilgan.	Adabiyot orqali siyosiy qarashlar bildirgan, xalqni uyg‘otishga intilgan.	“Munozara”, “Hind sayyohi”, “Abulfayzxon”, “Sayha” asarlarida ozodlik, istiqloq, tenglik g‘oyalari ilgari surilgan.
Amerika inqilobining mafkurachisi sifatida siyosiy va adabiy faoliyat yuritgan.	Siyosiy-falsafiy qarashlarini badiiy asarlari orqali ifodalagan.	Jadidlar harakatining yetakchisi sifatida siyosiy va adabiy faoliyat yuritgan.
Xalqning siyosiy huquqlari, ijtimoiy tengligi, inson erkinligi masalalariga urg‘u bergan.	Milliy uyg‘onish va ijtimoiy-siyosiy islohotlarga chaqirgan.	Milliy istiqloq, diniy va madaniy erkinlik, ma‘rifatga urg‘u bergan.
Jamiyat va hukumat o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatgan.	Adabiyotni ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi deb bilgan.	Zamonaviy davlat qurilishi, ma‘rifat orqali ozodlik g‘oyasini ilgari surgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Filip Moren Freno va Cho‘lpon she‘riyatida “shaxs va jamiyat” masalalari*” deb nomlanib, unda ikki shoir asarlarida individual erkinlik, adolat, insoniy qadriyatlar va ijtimoiy konflikt iskanjasidagi shaxs iztiroblari tahlil qilinadi. Freno she‘riyatida mustamlakachilikka qarshi kurash, fuqarolik huquqlari va insoniy or-nomus masalalari markazda turadi. Cho‘lpon esa

³⁰ Society is produced by our wants, and government by wickedness; the former promotes our happiness positively by uniting our affections, the latter negatively by restraining our vices. The one encourages intercourse, the other creates distinctions - Paine T. Common sense. – New York: Peter Eckler, 1918. – P.13.

o‘z she‘riyatida jamiyatdagi zulm, savodsizlik, adolatsizlik kabi muammolarga qarshi kurashuvchi, ma‘rifatparvar shaxs obrazini yaratgan.

Cho‘lpon ozodlik yo‘lida chekkan iztiroblar va boshdan kechirgan alamlar, har qanday qiyinchiliklarga qaramay, xalqni dushmanga qarshi kurashga chorlaydi. Jasoratli va qo‘rqmas shoir o‘z fikrlarini ochiq bayon qilib, butun xalqini ozodlikka erishishini orzu qiladi. U Turkiston osmonini qoplagan zulm va istibdod timsoli bo‘lgan qora bulutlarni tarqatishga, adolatsizlikdan xalos bo‘lishga intiladi va bu yo‘lda yonib yashaydi.

Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?
Sahar vaqtida gullaring so‘ldi.
Chamanlar barbod, qushlar ham faryod,
Hammasi mahzun. Bo‘lmasmi dil shod?
Bilmam ne uchun qushlar uchmas bog‘chalarinda? ³¹
(Go‘zal Turkiston)

Freno ham “Amerika Ozodligi” (1775) she‘rini demokratiya va mustaqillik g‘oyalarini badiiy ifodalab, ozodlik uchun kurashga chorlovchi asar sifatida yaratdi. “Amerika Ozodligi” she‘ri Filip Frenoning Amerika mustaqilligi tarafdori ekanligini va uning erkinlik hamda o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillariga bo‘lgan qat’iy ishonchini aks ettiradi:

Once more Bellona, forc’d upon the stage,
Inspires new fury, and awakes her rage,
From North to South her thun’dring trumpet spreads
Tumults, and war and death, and daring deeds.
What breast but kindles at the martial sound?
What heart but bleeds to feel its country’s wound?³²

Yana Bellona ommaga mashhur,
O‘zgacha darg‘azab, o‘zgacha mag‘rur.
Shimol-u janubni qildi u ishg‘ol
G‘alayon, urushning yoylari uchdi!
Jang-u, olomonlar yer yuzin quchdi!
Kim endi kuyadi Vatani uchun?
Kimning qalbi yonar Vatani uchun?³³

Ushbu misralar Bellona – qadimgi Rim urush ma‘budasi nomi bilan boshlanib, shoir Amerikada yana urush boshlanayotgani, agar befarqlik hukmron ekan, vatan uchun kim fido bo‘ladi, deya murojaat qiladi. Inqilobiy urush boshlanishidan oldinroq yozilgan ushbu she‘rda vatanparvarlik ruhi tarannum etilgan. Ushbu asarda Freno Amerika inqilobini, yangi tuzumni barpo etish uchun qilinayotgan harakatlarni qo‘llab-quvvatlashi o‘z ifodasini topgan.

³¹ Чўлпон. Гўзал Туркистон. – Тошкент: Маънавият, 1997. – Б. 31. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, 1993. – Б. 7.

³² <https://poets.org/poem/american-liberty> [Murojaat sanasi: 22.03.2024]

³³ Tadqiqot obyektini sifatida tanlangan inglizcha badiiy asarlarning o‘zbek tilidagi tarjimasini tadqiqot muallifiga tegishli.

Filip Moren Freno va Cho'lpon lirikasidagi asosiy mavzu – mamlakat ozodligi, xalqning mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo'lishi ifodalanib, ular xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirdi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *“Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy nasrida istiqlol uchun kurash g'oyalari tasviri”* deb nomlanib, unda ikki adibning asarlarida mustamlakachilik, milliy ozodlik va erkinlik uchun kurash g'oyalari aks ettirishdagi mahorati tahlil qilinadi. Fenimor Kuper o'z romanlarida Amerika tub aholisi, ularning o'z erki va hayot tarzi uchun olib borgan kurashini tasvirlab, adolat va insoniy qadriyatlarni himoya qiladi. Xuddi shunday, Abdulla Qodiriy ham o'z tarixiy romanlarida Turkiston xalqlarining mustabid tuzumga qarshi kurashini, milliy uyg'onish va istiqlol intilishlarini yoritadi. Ushbu faslda ikki muallifning obraz yaratish mahorati, tarixiy voqealarga munosabati, g'oya va mafkura jihatidan qanday yaqinlik va tafovutlarga ega ekani chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, har ikki ijodda istiqlol uchun kurash g'oyasi milliy o'zlikni anglash va saqlab qolish vositasi sifatida qaraladi.

Fenimor Kuper o'z davrining murakkab siyosiy va adabiy shaxslaridan biri bo'lib, uning ijodini faqat Amerika romantizmi doirasida talqin qilish murakkab jarayondir. Chunki uning asarlarida ma'rifatparvarlik tamoyillari: ozodlik yo'lidagi kurash, kolonializmga qarshi chiqish va mustaqillik g'oyalari keng aks etgan. Xususan, *“Josus”* romani shu g'oyalarga asoslangan holda yozilgan. Kuper har qanday inqilobni monarxiya tuzumlarini o'zgartirishga qaratilgan siyosiy jarayon sifatida tushungan.

“Josus” romanida romantizm unsurlaridan bo'lmish peyzaj va tabiat (landscape va seascape) hamda hissiyotlarga boy tasvirlar keng qo'llangan bo'lsa-da, uning g'oyaviy asoslari ma'rifatchilik davriga ham xos. Chunki Kuper yashab ijod etgan 1789–1851-yillar oralig'ida Amerikaga ma'rifatchilik g'oyalari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu jarayon uning ijodida ham aks etgan. Yozuvchi o'zidan oldingi avlodning intilishlariga bevosita bog'liq bo'lgan ma'rifatparvarlik qarashlari ta'sirida shakllangan.

Abdulla Qodiriy *“Mehrobdan chayon”* asari prologida ijodiy niyatiga ishora qiladi: *“Turkiston feodallarining keyingi vakili bo'lg'an Xudoyorning o'z xohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand – kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi ro'monning mavzu'idir. ...Albatta, men bu so'ng'i marg'ub qahramonlarni o'zbek tarixining hazmi ko'targan qadar o'z holicha olishqa tirishdim. Ularning xon va ulamoga qarshi isyoni tabiiy – shar'iydir”*³⁴. Romanda XIX asr *“xon zamonlari”* davridagi o'zboshimchaliklar badiiy ifoda etilsa-da, unda asar yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan. Ya'ni adib mustamlakachilik siyosatining achchiq iztiroblarini xon zamonlari tasviri orqali *“niqob”*laydi. Ammo mustabid tuzum vakillari asarning botiniy ma'nosini – tagma'noni ilg'aydi. Umuman olganda, Amerika xalqi tarixida muhim burilish bosqichi bo'lgan mustaqillik uchun kurash va bu davrga xos keskinlik, ziddiyatlar

³⁴ Кодирий А. Мехробдан чаён. – Т: Info Capital Group, 2017. – Б. 13.

adabiyotda o‘z aksini topganidek, XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ham mamlakat kelajagi uchun muhim burilish nuqtasini tashkil etgan. Ushbu tarixiy jarayonlarning badiiy talqini tahlil qilinib, ikki davr adabiyotining o‘ziga xosliklari ochib berildi. Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy turli millat vakillari bo‘lishiga qaramay, ularning ijodida mavzu, g‘oya hamda obrazlar tizimini shakllantirishda universallik seziladi. Shu bilan birga, har ikki yozuvchi mahorati o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari va individual ijodiy yondashuvi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Amerika ma’rifatparvarlari va o‘zbek jadidlarining ma’rifiy qarashlari”** deb nomlanib, uning birinchi faslida *Tomas Peyn va Abdurauf Fitrat asarlarida ma’rifiy masalalarning o‘ziga xos xususiyatlari* izohlangan. Peyn ta’limning insonlar ongini yuksaltirish va ma’rifatli jamiyatni rivojlantirish vositasi sifatida muhimligiga urg‘u bergan. 1791-yilda nashr etilgan “Inson huquqlari”da Peyn ta’lim haqida o‘z fikrlarini bildirib, ijtimoiy mavqeyi va maqomidan qat’i nazar, hamma uchun barobar bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Esseda shunday mulohazalar keltirilgan: *A number of families who, though not properly of the class of poor, yet find it difficult to give education to their children; and such children under such a case, would be in a worse condition than if their children were actually poor*³⁵. Garchi kambag‘allar sinfiga mansub bo‘lmasa-da, farzandlariga ta’lim berishda sustkashlik qilayotgan oilalar, ularning farzandlari, haqiqatan ham, kambag‘al bo‘lganidan ko‘ra ayanchliroq ahvolga tushadilar. Peyn yaxshi va sifatli ta’lim insonlar o‘z huquqlaridan foydalanishlari va demokratik jarayonda to‘liq ishtirok etishlari uchun zarur deb hisoblardi. Peyn bepul xalq ta’limi tarafdori bo‘lib, uning tenglik va ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashdagi rolini izohlab, jamiyat har bir bolaning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, ta’lim olish huquqini ta’minlashga mas’ulligini ta’kidlaydi. Tomas Peyn jamiyatdagi dolzarb muammolarni berin-ketin sanab, ularni bartaraf etishga shoshilish kerakligini e’tirof etadi: *First, Abolition of two million poor rates, Secondly, provision for two hundred and fifty thousand poor families, Thirdly, Education for one million and thirty thousand children.*³⁶ *Birinchiidan, ikki million kambag‘allarni qulchilikdan ozod etish, ikkinchiidan, ikki yuz ellik ming kam ta’minlangan oilalarni ta’minlash, uchinchiidan, bir million o‘ttiz ming bolaga ta’lim berish.* Adib asarlarida faol fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy tafakkur hamda axloqiy qadriyatlarning ommaga singdirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. U jamiyatni tarbiyalovchi omil sifatida bepul va inklyuziv umumiy ta’lim tizimini joriy etish zaruriyatini muntazam ta’kidlaydi. Peyn o‘z asarlarida hamda nutqlarida ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratib, uni ijtimoiy ong va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida talqin qiladi.

Fitrat o‘zining dramatik va lirik asarlari orqali o‘z davrining dolzarb muammolarini fosh etib, jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib etdi, shuningdek, jamiyat illatlaridan qutulish yo‘llarini ko‘rsatib berdi³⁷.

³⁵ Paine T. The Rights of Man. NY.: Cosimo, Inc. – P. 151.

³⁶ Paine T. The Rights of Man. NY.: Cosimo, Inc. – P. 154.

³⁷ Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Т.: Bookmany Print, 2023. – Б. 7.

“Munozara” – Fitratning jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qilgan ilk asarlaridan bo‘lib, u dialog shaklida yozilgan va unda eskicha ta‘lim tizimi tanqid ostiga olinadi. “Munozara”da Fitrat mohirlik bilan Buxoro amirligidagi ta‘lim ishlarining abgor ahvolini yoritilib, maktab va o‘qitish usullarini tubdan isloh qilish vazifasini qo‘yadi. Ushbu o‘rinda yapon fitratshunosi Xisao Kumatsu “Fitratning “Munozara”si xususida qaydlar” nomli tadqiqotida “Munozara”ning fors, o‘zbek, rus tilidagi nusxalarini, tarjimalarini tahlil qilgan. Fitrat Buxoroga yangi g‘oyalar bilan qaytib keladi va jadidlarning yetakchi vakillaridan biriga aylanadi. Adabiyotshunos Erik Karimov “O‘zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti” nomli monografiyasida Fitratning “Munozara” asarining janri haqida to‘xtalib, uni “falsafiy-siyosiy dialog”,³⁸– deb ataydi.

Peyn doimo bilim va ma‘rifat jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini ta‘kidlab, insonning intellektual rivojlanishi demokratik jamiyat barqarorligining asosiy sharti deb hisoblagan. Fitrat farangi tilidan boshqa o‘lkalardagi ta‘lim tizimi haqida ma‘lumot berib, yurtimizda ta‘limni isloh qilish kerakligini qat‘iy ta‘kidlaydi: *“Hatto haybatidan tog‘lar larzaga keladigan ba‘zi yapon vazirlari bo‘sh vaqtlarini o‘z raiyatining bolalariga ta‘lim berishga sarflab, ya‘ni, Siz aytishingizcha, maktabdorlik qiladilar va buning uchun hech kimdan hech narsa olmaydilar, balki o‘z xarjlaridan qolg‘an qismini bu yo‘lda sarf etadilar. Bugungi kunda nasroniylar orasida ham shunday odamlar borki, ular faqat o‘z manfaatlari yo‘lida yurmasdan, botiniy umuminsoniy niyatlarini amalga oshirishni lozim biladilar, bunday yo‘lda yurmaganlarni esa inson sanamaydilar”*³⁹.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, Peyn va Fitrat ta‘lim va ma‘rifatning ahamiyatiga nafaqat ayrim asarlarida, balki butun ijodi davomida jiddiy e‘tibor qaratishgan.

Ushbu bobning *“Filip Moren Freno va Cho‘lpon ijodida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari talqini”* nomli faslida ikki shoir ijodida aks etgan ma‘rifatparvarlik tamoyillari, ijtimoiy adolat, xalqni ilmga, erkin fikrga va taraqqiyotga undovchi g‘oyalar tahlil qilinadi. Freno she‘riyati orqali Amerika mustaqilligi va fuqarolik ongini shakllantirish g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, Cho‘lpon asarlarida esa xalqni jaholat botqog‘idan ma‘rifat osmoniga ko‘tarish, o‘zligini anglash va yangi hayot sari yetaklash g‘oyasi ustuvor o‘rin egallaydi.

Filip Moren Frenoning 1778-yilda yozgan “Tinchlik istiqboli” (The Prospect of Peace) she‘ri Amerika inqilobidan keyingi Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqilligi, qulchilikka qarshi kurash, tinchlik o‘rnatish va mamlakat kelajagi mavzularini tarannum etuvchi asardir. She‘rda paydo bo‘layotgan Amerika milliy o‘ziga xosligi va mamlakatning dunyoni yangi davrga olib borishga bo‘lgan intilishlari aks ettirilgan.

She‘rda mavjud asosiy mavzu va g‘oyalardan biri – inqilobiy urushning tugashini nishonlash bo‘lib, she‘r ana shunday mashaqqat va g‘alayonlarni olib kelgan urush tugaganidan xursandchilik motivi bilan boshlanadi:

Now cease the drum's destructive roar,

³⁸ Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. Т.: Фан, 1976. – С. 7.

³⁹ Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. - T., Ma‘naviyat. 2000. – B. 55.

Nor war's rude engines shake the trembling shore;
No more the clarion's blast, with horror big,
Shall cause the bleeding heart to sink or swell⁴⁰

Endi to‘xtar, barabanning halokatli sadosi
Urush g‘alayonlari silkitmas yer yuzini!
Dahshatli shovqin-suron endi yo‘q,
Urayotgan yurak vazmin, endi ko‘ngil to‘q!

Freno Qo‘shma Shtatlarning g‘alabasi bilan erishgan mustaqilligi va suverenitetini shu tarzda nishonlaydi. Shoir she‘rlarida farovon kelajakni tasavvur qiladi. U Amerikani erkinlik va ma‘rifat chirog‘i sifatida tasavvur qiladi, butun dunyoga o‘rnak sifatida ko‘rsatadi.

Cho‘lponning 1914-yilda ijodining dastlabki yillarida yozgan she‘rlarida jaholat botqog‘iga botgan elining kelajagi haqida kuyinib yozadi. Adibning “Turkistonlik qardoshlarimizga” deb nomlangan she‘rida quyidagi misralar mavjud:

Ilmu ma‘rifat ham hunardin qoldi mahrum bizni xalq,
Ma‘rifatsizlik balosiga yo‘liqqon bizni xalq.
Bir kishi millatparast o‘lsa, deyurlar “dahriy” deb,
Bir kishi millatni so‘ksa, izzat aylar bizni xalq⁴¹.

Cho‘lpon ijodida ma‘rifatchilikni madh etuvchi she‘rlar talaygina. Ushbu misralarda shoirning ilmsiz xalqning ayanchli qismati, hatto do‘st va dushmani ajrata olmagan millatining halokati aks etgan.

Freno va Cho‘lpon ijodida umid, kelajak, xalq taqdiri kabi umumiy mavzular mavjud. Ammo ularning yondashuvi, poetik vositalardan foydalanish mahorati va ifoda uslubi mentalitet nuqtayi nazardan farqlanadi. Freno tarixiy g‘alabani madh etsa, Cho‘lpon tarixiy muammolarni fosh qiladi. Freno satira obrazlar orqali, Cho‘lpon esa ramziy obrazlar orqali o‘z ma‘rifiy g‘oyalarini ifoda etgan. Ularning ijodi o‘z davri intellektual muhitini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Bobning uchinchi fasli “*Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlarida adabiy-siyosiy masalalarning badiiy ifodasi*” deb nomlanib, unda Amerika va o‘zbek tarixiy roman janrining shakllanishi va rivojida muhim o‘rin egallagan ikki buyuk adib Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriyning ijodi qiyosiy tahlil qilinadi.

Jeyms Fenimor Kuper 32 roman, 10 jilddan ortiq sayohatnomalar hamda bir necha jilddan iborat publitsistik asarlar yozgan. Kuperning adabiy faoliyati uning ilk “Ehtiyotkorlik” romani (1820) bilan boshlangan bo‘lib, u Amerika adabiyotidagi muhim asarlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, Amerika inqilobi tarixiga bag‘ishlangan “Josus” (1821) romani sarguzasht va tarixiy motivlari bilan ajralib turib, yozuvchiga katta shuhrat olib kelgan⁴².

Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarida xalqning zabun kunlaridan kuyinib so‘zlaydi, millatni uyg‘otishga da‘vat etadi. Uning ijodi orqali “tariximizning eng

⁴⁰ Lewis Leary. *The Last Poems of Philip Freneau*. – New Brunswick: Rutgers University Press, 1945. – P. 21.

⁴¹ Чўлпон. Асарлар. 1 жилд. – Т.: Академнашр, 2016. – Б. 14.

⁴² <https://www.britannica.com/biography/Thomas-Paine> [Murojaat sanasi: 17.03.2025]

kirlik, qora kunlari”⁴³ haqida chuqur ma’lumotga ega bo’lish mumkin. “O’tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi romanlarida Xudoyorxon davri voqealari badiiy ifoda etilgan.

Fenimor Kuperning 1821-yilda yozgan “Josus” nomli asari shu mavzuga bag’ishlangan edi. Ushbu vatanparvarlik tuyg’usiga yo’g’rilgan roman muallifga katta obro’ va shuhrat keltirdi. Umuman olganda, buyuk adib Kuper bu asari orqali Amerika milliy adabiyotdagi mavjud bo’shliqni to’ldirib uning kelgusi taraqqiyot yo’llarini ko’rsatib berdi. Ushbu asar o’zbek tarjimoni Erkin Mirobidov tomonidan “Josus yoxud betaraf o’lka hikoyati” nomi ostida tarjima qilingan. Fenimor Kuper o’z asarlarida ozodlik uchun kurashuvchi mard, jasur qahramonni ulug’laydi. “Josus” romanining qahramoni - vatani uchun jonini fido qilgan Harvi Bo’rch, chindan ham, yashagan tarixiy shaxs. Romanda amerikaliklarning ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashining dramatik manzaralari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan⁴⁴.

“O’tkan kunlar” romanida ham barcha qonunlar faqat amaldorlar uchun ishlashini va oddiy xalq faqat azob-uqubat uchun yaralgani Otabekning ushbu fikrida ayonlashadi: *“Oramizda bu qo’rqunch holatka bahaqqi tushunadig’an yaxshi odamlar yo’q, bil’aks buzg’uchi va nizo’chi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuquriga qarab tortadilar. Bu kungi qora chopon va qipchoq nizolarini sizga bir timsol o’rnida ko’rsatayin: o’ylab ko’rilsin, bu nizolardan bizga qanchalik foyda va qipchoq og’aynilarg’a nima manfaat hosil bo’lmoq-da? – Faqat bundan foydalang’uchilar ikki xalq orasiga adovat urug’ini sochib yurg’uchi bir necha e’vogar boshluqlarg’inadir”*⁴⁵. Ushbu parcha orqali adib jamiyatdagi kelishmovchilik va mojarolar ortida turli manfaatdor guruhlar turganini ochib beradi. Muallif odamlarning o’zaro nizolari asosan tashqi kuchlar yoki ichki buzg’unchi unsurlar tomonidan ataylab avj oldirilishini ta’kidlaydi. U adovat va parokandalikdan oddiy xalq emas, balki ushbu mojarolarni qo’zg’atuvchi manfaatdor shaxslar foyda ko’rishini ochiq ko’rsatadi. Shu tariqa, asar o’quvchini ijtimoiy birlik va hushyorlikka undaydi hamda insonlarni o’zaro nizolardan ko’ra birdamlik va hamjihatlik sari intilishga chorlaydi.

Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy – o’z millatining erki, ma’rifati uchun kurashgan adiblar. O’zlarining tarixiy romanlari orqali aynan xalq dardini oshkora ifodalashga, achchiq haqiqatlarni yuzaga chiqarishga harakat qilishgan. Ikkala muallif ham o’z xalqining tarixini va jamiyatidagi o’zgarishlarni tasvirlashda kuchli realizm va ijtimoiy tanqidiy yondashuvni tanlagan, ammo ularning uslublari turlicha bo’lib, har biri o’zining madaniy va tarixiy muhiti bilan bog’liq holda asarlar yaratgan.

XULOSA

1. Ma’rifatchilik adabiyotining umumbashariy xususiyatlari sifatida inson ongi va tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga ishonch, jamiyatni savodli qilishga

⁴³Qodiriy A. O’tkan kunlar. – T.: Ziyo, 2007. – B. 5.

⁴⁴ Kuper Fenimor. Жосус ёхуд бетараф ўлка хикояси. – Т.: Ф.Фуллом. – Б. 6.

⁴⁵ Qodiriy A. O’tkan kunlar. – T.: Ziyo, 2007. – B.5.

intilish, o'tmishga xolisona munosabat bildirish omillari alohida e'tirof etiladi. Jamiyatni ong asosida qurish va boshqarish g'oyasini ilgari surgan ma'rifatparvarlik davri tarixiy optimizm bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fan va jamiyat taraqqiyotining dastlabki rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi. Mashhur ma'rifatparvar mutafakkir va yozuvchilarining didaktik-axloqiy va tashviqiy-chaqiriq yo'sinidagi asarlari jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan edi.

2. XVIII asr – “Ma'rifatchilik asri” sifatida Yevropa madaniyati tarixida, jumladan, AQShda ham eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Yevropa falsafiy g'oyalari, inqilobiy qo'zg'olonlar va fikri uyg'oq avlodning shakllanishi natijasida paydo bo'lgan, taxminan 1720–1820-yillarni qamragan Amerika ma'rifatchilik adabiyoti an'anaviy qadriyatlarni tubdan isloh qilib, badiiy asarlarda insoniyat tamaddunida tafakkur beqiyos o'rin tutishi tasviriga alohida e'tibor berdi. Amerika ma'rifatchilik davrida yaratilgan adabiyot namunalari 1776–1783-yillarda ro'y bergan inqilobiy harakatning asosiy qadriyatlari aks ettirilib, jumladan, taraqqiyot, islohot, individualizm, ratsionalizm va empirik yondashuvga jiddiy e'tibor qaratilgan.

3. Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik g'oyalari IX-XV asrlarda targ'ib etilgan bo'lsa-da, keyinchalik siyosiy tanazzul, parchalanish va iqtisodiy turg'unlikni boshidan kechirdi. Mustabid tuzum siyosati, istibdod va qatag'on yillarining siquvi natijasida istiqloq g'oyalarini targ'ib qiluvchi yangicha adabiyot yuzaga keldi. Jadidlar badiiy adabiyotdan vosita va ma'naviy qurol sifatida foydalanishdi. Jadidlar har qanday jamiyatni razolat-u yovuzliklardan aynan ilm-ma'rifat qutqarishiga ishonar edilar va milliy istiqloq g'oyalarini badiiy asarlarida mardonavor aks ettirdilar.

4. Adabiyot va siyosat bir-biridan yiroq hodisalar emas, ularning yaqinligi uzoq tarixdagi munosabatlarning turli shakllarini qamraydi. Adabiy siyosatning rivojlanish tendensiyalari qadimgi davrda boshlangan bo'lsa, ma'rifatchilik davrida alohida tus ola boshladi. Adabiyot va siyosatning o'zaro bog'liqligi, badiiy asarlarda siyosiy mavzularning yoritilishi uzoq tarixga ega. Ushbu ikki soha bir-biriga uzviy bog'liq holda dunyo adabiy tafakkuriga quvvat baxsh etgan nodir asarlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotlarga ko'ra, siyosiy voqealar estetik asarlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Ya'ni davrning siyosiy muhitidan kelib chiqib, adabiyot rivojlanadi va badiiy asarlar muayyan siyosiy voqelikning badiiy in'ikosi sifatida yaratiladi.

5. Ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib qilingan Amerika adabiyotining mashhur asarlaridan ba'zilar siyosiy turkumdagi adabiyotlar bo'lib, bulardan Amerikaning mustaqilligi uchun asosli dalil sifatida xizmat qilgan risola Tomas Peynning “Sog'lom fikr” asaridir. O'zbek jadidlaridan bo'lgan Abdurauf Fitrat ham “Munoza” va “Hind sayyohi bayonoti” asarlarida davr siyosiy voqeliklarini badiiy ifoda etib, jamiyat muammolarini ro'yi rost aks ettirilgan.

6. Filip Freno she'rlarida siyosat, shaxs va jamiyat, tabiat hamda ijtimoiy masalalarga alohida e'tibor qaratgan. U mustaqillik, ozodlik va vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surib, shaxsiy erkinlik va daxlsizlikni himoya qilishni asosiy

mavzulardan biri sifatida ko'rsatgan. Frenoning g'oyalari Abdulhamid Cho'lpon ijodiga hamohangdir. Har ikkala adib she'riyatida o'z xalqining mustamlaka zulmidan aziyat chekkanligi va ozodlik sari umid bilan intilishi yaqqol aks etgan.

7. Amerika va o'zbek adabiyotida ilk tarixiy roman janriga asos solgan buyuk yozuvchilar Fenimor Kuper va Abdulla Qodiriy turli millatga mansub bo'lishiga qaramay, ularning ijodida mavzu, g'oya va obrazlar tizimida universallik kuzatiladi. Har ikkala yozuvchi o'ziga xos uslubga ega bo'lsa-da, ularning asarlarida mustamlaka tuzumiga qarshi fikrlar va ozodlikka intilish g'oyalari yaqqol aks etgan.

8. Tomas Peyn siyosiy va inqilobiy g'oyalarini "Sog'lom fikr" (Common Sense) va "Inson huquqlari" (Rights of Man) kabi asarlarida aniq ifoda etgan bo'lib, bu asarlar ta'lim-tarbiya va ma'rifatning ahamiyatini keng yoritadi. Turkiston jadidchiligining asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat ma'naviy qashshoqlik, gender tengsizligi, ijtimoiy tabaqalanish kabi muammolarga turli janrdagi asarlari orqali yechim izladi. Fitrat xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim olish, adolatli boshqaruv tizimlarini o'rnatish haqidagi zamonining eng dolzarb masalalariga keskin munosabat bildirilgan.

9. Filip Frenoning she'rlarida vatanparvarlik, milliy o'ziga xoslik va g'urur, mustaqillik uchun kurash g'oyalari tasvirlangan. Uning she'rlarida shaxs va jamiyat munosabatlari tarranum etilgan. Filip Freno ijodida ma'rifatchilik g'oyalari asosiy o'rin egallab, u aql va mantiqqa tayanish, tabiiy huquqlar va shaxs erkinligi, ijtimoiy hamda siyosiy tanqid, tajriba va kuzatuv, taraqqiyot va o'zaro ishonch kabi mavzularni yoritgan. Cho'lponning she'riy merosida ham ma'rifatchilik tamoyillari aks etib, milliy ong, shaxs huquqlari va erkinligi, taraqqiyot, ta'lim hamda ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritilgan.

10. Jeyms Fenimor qahramonlaridagi insoniy fazilatlar, tarixiy voqealar bilan bir qatorda tabiat tasviriga ham alohida e'tibor qaratadi. "Josus" nomli asarida Amerika tub aholisining kelib chiqishini ko'rsatishga harakat qilib, hindular va ulardan keyin Amerikada muqimlashgan insonlar hayot tarzi hamda ijtimoiy tengsizlik muammolarini asosiy motiv darajasiga ko'taradi. Abdulla Qodiriyning mashhur "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida "tariximizning eng kirlik, qora kunlari" sifatida e'tirof etilgan Xudoyorxon davri voqealari badiiy gavdalantirilgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY

KHUDOYBERDIEV JASUR LATIPOVICH

**INTERPRETATION OF LITERARY POLITICS IN AMERICAN
ENLIGHTENMENT AND UZBEK JADID LITERATURE**

10.00.06 – Comparative literature, comparative linguistics and translation studies

**DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN
PHILOLOGICAL SCIENCES**

TASHKENT – 2025

The theme of the dissertation of doctor of philology (PhD) on pedagogical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2022.2.PhD/Fil2630.

The dissertation has been prepared at Uzbekistan State University of World Languages.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council at www.uzswlu.uz and on the website «ZiyoNet» Information and Education portal at www.ziynet.uz.

Scientific supervisor: **Umarova Makhliyo Yunusovna,**
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

Official opponents: **Khayrullaev Khurshid Zaynievich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Djalilova Khurshida Mirkholikovna
Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

Leading organization: **Andijan State Institute of Foreign Languages**

The defense of the dissertation will take place on «__» _____, 2025 at ____ at the meeting of the Scientific Council No. DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 at Uzbekistan State University of World Languages (Address: 21A Kichik Halqa Yuli Street, Uchtepa District, 100138, Tashkent, Uzbekistan. Tel.: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

The dissertation can be accessed in the Information Resource Center of Uzbekistan State University of World Languages (registered under No.: ____). Address: 21A Kichik Halqa Yuli Street, Uchtepa District, 100138, Tashkent, Uzbekistan. Tel.: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru

The abstract of the dissertation was distributed on «__» _____ 2025.

(Registry record No. ____ dated «__» _____ 2025).

I.T. Tukhtasinov

Chairman of the Scientific Council on Awarding Scientific Degrees, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kh.B. Samigova

Secretary of the Scientific Council on Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

J.A. Yakubov

Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD dissertation)

The topicality of the research and its necessity. In world literary studies, many literary periods and trends have been formed, such as ancient, medieval, Renaissance literature, Classicism, Romanticism, Sentimentalism, Naturalism, Critical Realism, Wartime literature, Modernism, Postmodernism, each of which is distinguished by its own aesthetic principles and social as well as spiritual tasks. Literary trends and movements arose in response to the social and aesthetic demands of their time. In this sense, Enlightenment and Jadid literature can be explained by the fact that they were formed in similar historical and social conditions. In literary studies, the reference of literature to politics and politics to literature has a long history. On the basis of the genre principles of lyrical, epic, and dramatic works, politics is represented artistically in different times and places. The concepts of political activity (*politics*) and *policy* differ in content. Within the framework of political activity, various processes are carried out, in particular, the study and analysis of political phenomena. Politics is a broader concept, which, along with social and anthropological aspects, also encompasses the attitude of individuals and social groups towards property, stratification, and economic changes. Therefore, literature dealing with political issues serves to describe the relationship between human and society.

In world literature, the term “*literary policy*” acquires a philosophical and aesthetic meaning. “Literary policy” was formed in Europe before the 16th century and gained further influence in the 19th century. This concept is expressed in English literary studies by such terms as “policy on literature” and “literary policy.” However, from the mid-19th century, the term “*literary politics*” began to be widely applied. In French literary works, it is recognized that this term (*politique litteraire*) appeared before the English but was rarely used in practice. “Literary politics” is not limited to the analysis of political processes in a particular state, but also generalizes the complex relationship between literature and politics. In American literature, Philip Moren Freneau, Thomas Paine and Fenimore Cooper stand out among the writers who made an invaluable contribution to the cultural life of the country, social progress, and the development of science, enlightenment, art, and literature. In their works, political issues are skillfully embelished.

Although the interpretation of political issues is presented in Uzbek literary studies, the term *literary politics* has not been studied as a scientific term. In the works of the authors of each period, the details of the period are regularly highlighted. The contribution of the Turkestan progressives, and later the enlightened intelligentsia, known as the Jadids, to national literature was immense, and they led to transformations in many fields. Thus, as our President stated, “We must study our ancient and rich history even more thoroughly, particularly the activities of our Jadid forefathers who courageously raised the ideas of enlightenment, human freedom, national liberation, love and loyalty to the

Homeland and national values under extremely difficult conditions. Their courageous struggle and dedication to great goals should serve as a true example for all of us, especially our youth, in building a New Uzbekistan”⁴⁶. Strengthening the stability of the spiritual environment is one of the important tasks for our country to occupy a deserved position on the international stage.

The research given also aligns with the following legislative documents of the Republic of Uzbekistan: Presidential Decree No. PF-5847 as of October 8, 2019, “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; Presidential Decree No. PF-6097 as of October 29, 2020, Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan dated May 19, 2021 No. PP-5117 “On Measures to Stimulate the Activities on Promoting the Study of Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan to a Quality New Level,” “On Approval of the Concept for the Development of Science until 2030”; Presidential Decree No. PF-60 as of January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; Presidential Speech as of December 22, 2023, on the topic “Spirituality Must Lead Other Sectors, Transforming into a New Force and Movement”; Presidential Resolution No. PQ-279 as of July 19, 2024, “On Expanding the Study, Promotion, and Perpetuation of the Memory of Our Compatriots Who Were Victims of Political Repression” and this dissertation research serves as an important scientific basis for the implementation of the tasks defined in other regulatory legal acts adopted in this area.

Relevance of the theme of the dissertation to the priority direction of science and technology development in Uzbekistan. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the Republic. I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the informed society and a democratic state.”

Problem development status. In world literary studies, the relationship between literature and politics has been developing in various manifestations over a long historical period. This phenomenon first appeared in the French and English literature and later occurred in the German literature. In each period, the interpretation of political issues is reflected in literary works.

British researchers E.Allworth, A.Kalid, D.Phillips, K.Shaw, American scientists S.Bowskill, J.Mehlman, M.E.Thomas, French scholars J.Rencier, Sarah M.Corse⁴⁷, Russian scientists M.Bakhtin, B. Groys, L.Krotova, N.Danilova,

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //https://president.uz/oz/lists/view/5774 [Murojaat sanasi: 26.09.2024]

⁴⁷ Allworth E. Uzbek literary politics. –The Hague: Mouton, 1964; Central Asian publishing and the rise of nationalism. –New York: New York Public Library, 1965; The nationality question in Soviet Central Asia. –New York: Praeger Publishers, 1973; The Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. A cultural history. Hoover Institution Press. 1990; Deborah Philips, Katy Shaw. Literary Politics the Politics of Literature and the Literature of Politics. – UK: Palgrave Macmillan, 2013. – P. 211.; Sarah E. L. Bowskill. The Politics of Literary Prestige. – New York: Bloomsbury academy, 2022. – P. 225.; Mehlman, Jeffrey. Genealogies of the text: literature,

B.Olyashek⁴⁸, and Uzbek scholars O.Matkurbanova, R.Niyozmetova, and Z.Mirzayeva⁴⁹ expressed their views on the problems of literary politics.

Extensive research has been conducted worldwide on the works of Thomas Paine, Philip Moren Freneau, and Fenimore Cooper, who played an important role in the American Enlightenment, as well as their educational and political views in the country. Particularly, scientists such as David F. Burg, Bernard Vincent, Christopher Hitchens, Harvey J. Kaye, Fred Lewis Pattee, Laura Waxman, John P. McWilliams, and Wayne Franklin⁵⁰ conducted scientific research.

Similarly, Uzbek scholars, including O.Sharafiddinov, N.Karimov, H.Boltaboyev, I.Ganiyev, D.Quronov, B.Karimov, U.Joraqulov, Z.Adurashidov, S.Tolaganova, M.Umarova, Z.Mirzayeva, M.Sharafutdinova, Z.Qosimova⁵¹ have

